

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Aholi maskanlarini vujudga kelishida geomorfologik omillarning o'rne va ahamiyati	231
O.I.Abdug'aniyev	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining representativligi va samaradorligini baholash usullari	236
T.D.Jumayev, Sh.B.Qurbonov	
O'zbekiston tog' zonasi ma'muriy-hududiy bo'linishi xususiyatlari va ularni takomillashtirish	244
P.A.Xasanov	
Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo'llanilishi va tizimli yondashuv	250

QISHLOQ XO'JALIGI

N.A.Abdugalil, S.A.Bayrambay, I.N.Mamajonov	
Urug'lik paxtani yetishtirish va yuqori kondisiyalik urug'lik fondini tayyorlash	257

ILMIY AXBOROT

K.G'.Baykalanov	
O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit farovonligining o'rne	263
G.M.Maxsudova	
Ekologik ta'limni modernizatsiyalashda ekosavodxonlikni shakllantirishning pedagogik va integrativ jihatlari	267
Sh.Ismatov	
Yangi O'zbekiston – yangi ma'naviy makon	272
A.A.Saodatov	
Yoshlar ekologik madaniyatida nodavlat-notijorat tashkilotlarining tutgan o'rne	276
M.X.Raxmatulloyev	
Buxoro viloyat radiosining tashkil topishi tarixi va faoliyati	280
D.I.Nuriddinova	
Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish texnologiyasi	285
D.M.Redjabova	
Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning davlat tashkilotlaridagi faolligi	290
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik jihatlari	294
K.I.Турдалиева	
Интерпретация литературы по формированию функциональной грамотности учащихся начальных классов	297
N.A.Subxonova	
Mahalliy va xorij manbalarida Amir Shohmurod shaxsi va faoliyati tavsifi	303
Sh.M.Xaydarova	
Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik munosabatlar va ularning rivojlanishi	307
D.M.Xusanov	
Axloqiy qadriyatlar va ularning postmodern jamiyatdagi o'ziga xos jihatlari	311
R.S.Batirov	
Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning asosiy elementlari xususida	315
A.X.Mamadalimov	
Kosmopolitizm tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari xususida	319
Y.Sh.Yunusova	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy xususiyatlari	324
N.T.Buzrukova	
Zamonaviy jamiyatda shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash zarurati va falsafiy asoslari	327



UO'K: 101.1

**YANGI O'ZBEKISTONDA AXLOQIY VA DINIY QADRIYATLAR O'RTASIDAGI
DIALEKTIK MUNOSABATLAR VA ULARNING RIVOJLANISHI****ДИАЛЕКТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ И РАЗВИТИЕ МОРАЛЬНЫХ И РЕЛИГИОЗНЫХ
ЦЕННОСТЕЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ****DIALECTICAL RELATIONS AND DEVELOPMENT BETWEEN MORAL AND RELIGIOUS
VALUES IN NEW UZBEKISTAN****Xaydarova Shaxnoza Murataliyevna** 

Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada globallashuv davrida axloqiy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik munosabatni o'rganishning nazariy asoslari, globallashuv davrida axloqiy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik munosabatning dialektik tahlili, globallashuv davrida axloqiy va diniy qadriyatlarning istiqboldagi munosabatlarning muammo va yechimlari o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik munosabatlar va ularning rivojlanishi tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические основы изучения диалектических отношений между моральными и религиозными ценностями в эпоху глобализации. Приводится диалектический анализ взаимодействий между этими ценностями в период глобализации и исследуются проблемы и решения, касающиеся их будущих отношений. Кроме того, анализируются диалектические отношения и развитие моральных и религиозных ценностей в Новом Узбекистане.

Abstract

The article explores the theoretical foundations for studying the dialectical relationship between moral and religious values in the era of globalization. It provides a dialectical analysis of the interactions between these values during globalization and examines the problems and solutions regarding their future relations. Additionally, the dialectical relationships and development of moral and religious values in New Uzbekistan are analyzed.

Kalit so'zlar: globallashuv davri, axloqiy va diniy qadriyatlar, dialektika, dialektik munosabat, ijtimoiy normalar, axloqiy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, axloqiylik tamoyili, qadriyatlar uyg'unligi, axloq va din globallashuvi.

Ключевые слова: эпоха глобализации, моральные и религиозные ценности, диалектика, диалектические отношения, социальные нормы, моральный мироощущение, национальные и универсальные ценности, принцип морали, гармония ценностей, глобализация морали и религии.

Key words: era of globalization, moral and religious values, dialectics, dialectical relationship, social norms, moral worldview, national and universal values, principle of morality, harmony of values, globalization of morality and religion.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida dunyo sahnasida ko'pgina siyosiy institutlar faoliyatiga oid va ko'plab siyosiy masalalarni qayta ko'rib chiqishni talab etuvchi krizis ro'y bermoqda. Jahondagi ko'plab davlatlar demokratik tamoyillar asosida o'z taraqqiyot modelini shakllantirishga intilishi, demokratiyaning mohiyatini ilmiy asosda o'rganish, bu boradagi zamonaviy nazariy yondashuvlarni tadqiq etishning dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

Ta'kidlash joizki, demokratiyani ilmiy tahlil etishga urinishlar qadimdan boshlanib bugunga qadar davom etib kelishiga qaramay, umumilmiy yagona ta'rifga ega emas. Manbalarda demokratiya tizimida xalq oliy hokimiyat timsoliga ega bo'lib, bu hokimiyatni yo o'zi bevosita amalga oshiradi yoxud erkin saylov tizimi orqali o'zlari tanlagan vakillari vositasida amalga oshirishi alohida ta'kidlab o'tilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Axloqiylik va diniylik o'rtasidagi munosabatni o'rganish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Ularning yechimi borasidagi fikrlar ko'pgina mutafakkirlarning asarlarida bayon qilingan. Umuman jamiyat tafakkuri tarixida axloqiylik va diniylik o'zaro qarama-qarshi, bir-birini inkor qiluvchi tamoyillar sifatida tushunilib kelindi. Natijada ular o'rtasidagi munosabatlarda ham shunday ziddiyatli qarash hal qiluvchi rol o'ynadi. Mazkur masalalar I.V.Ponkin, S.D.Lebedev, K.Bagayeva, L.Syukiyaynen (Rossiya), G.Kremer, V.Shnayder-Deters, T.Nagel V.Bader (Germaniya), H.Yavuz, S.Ershohin (Turkiya), F.Kitcher, V.Furnyo (AQSH), A.Abdulla (Misr), A.Boynazarova, M.Abdurazzakova, Z.Minovarov, A.Qodirov, A.Mo'minov kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Demokratiya deganda, ko'pchilik ongida G'arbiy Yevropa mamlakatlari-ning davlat boshqaruv modeli tushunilgan va ba'zan hali ham shunday tushunilib kelinmoqda. "Demokratiya"ning birinchi etimologik ma'nosi, ya'ni atama sifatida kelib chiqishi bilan bog'liq. Chunki qadimgi Gretsiyada paydo bo'lgan "demokratiya" atamasi demos – "xalq", kratos – "hokimiyat"dan iborat bo'lib, "xalq hokimiyati" deb tarjima qilinadi. "Bu Konstitutsiyaning 7-moddasida mustahkamlangan "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir" degan ulug'vor g'oyaning amaliy ifodasi, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi". Biroq tadqiqotchi K.Baxriyevning e'tiroficha, demokratiya kecha paydo bo'lgani yo'q, qolaversa, u G'arbiy mahsuli ham emas, aksincha, demokratiya qadim-qadimda Sharqda shakllanganidir.

O'tmishda Konfutsiydan bu o'tkinchi dunyoda haqiqiy insondek yashash uchun kerak bo'ladigan yo'lni, hayot tarzini birgina so'z bilan ifodalaganda, u qanday so'z bo'lardi deb so'rashganida u – kenglik deya javob bergan. Aslida demokratiya shu – bag'rikenglik, muros, birovni chidab eshitish, kengashish, mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal qilmoq, qanchalik noqulay bo'lmasin, o'zgacha fikrni ham eshitmoq, hamma ijtimoiy tabaqalar, xalq bilan hisoblashmoqdir. Insoniy munosabatlardagi ana shu bag'rikenglikni davlat siyosatiga aylantirib, uni "demokratiya" deb ataydilar.

Umuman olganda, demokratiya – doimiy o'zgarish, rivojlanishda bo'lgan hodisa. A.Tokvil demokratiya deganda, toifalar o'rtasidagi tafovutning yo'qolishi, fuqarolar siyosiy tengligining qaror topishini tushundi. XVIII va XIX asrlardagi inqiloblar o'rta asrlardan meros bo'lib kelayotgan har bir kishining hokimiyat tizimi, nufuzi, madaniyatidagi mavqei aniq belgilanadigan tarixiy tuzilmalarga barham berdi. Bizning fikrimizcha, demokratiyaning eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu tizimda tolerantlikning mavjudligidir.

Demokratiyaning etimologik ta'rifi bo'yicha "xalq hokimiyati" degan ma'noni bersa, uni nisbatan kengroq tushunish demokratiyaning – ikkinchi ma'nosini – keltirib chiqaradi. YA'ni demokratiya – boshqaruv va qarorlar qabul qilinishida a'zolarining teng ishtirokiga asoslanuvchi har qanday tashkilotning tuzilish shaklidir.

Uchinchi ma'noda, demokratiya qadriyatlarining ma'lum bir tuzumiga asoslanuvchi ijtimoiy tuzum ideali sifatida tushuniladi va uning qadriyatlariga erkinlik, tenglik, inson huquqi, xalq suvereniteti hamda boshqalar kiritiladi.

To'rtinchi ma'nosida, demokratiya xalq hokimiyatchiligi, demokratik maqsadlar va ideallarni amalga oshirish uchun ijtimoiy hamda siyosiy harakatlar sifatida qaraladi.

Bugungi kunda jahon taraqqiyotida diniy omil borgan sari o'z kuchini ko'rsatayotir. Nafaqat u yoki bu davlatda, balki butun boshli mintaqalarda uning ta'sirida fuqarolar qarama-qarshilik, o'zaro nizo va kelishmovchiliklar girdobiga tortilmoqda, ijtimoiy barqarorlik va tinchlik muhiti buzilmoqda. Ushbu ijtimoiy-siyosiy sharoitdan kelib chiqqan holda, demokratiyaning bugungi ta'rifida xalq hokimiyatchiligi bilan bir qatorda diniylik va dunyoviylikning o'zaro munosabatlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan ijtimoiy-siyosiy sharoit bilan xarakterlanadi, deyish maqsadga muvofiqdir. Va bugungi kunda demokratik davlatchilikning shakllanishida diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi munosabatning qay tarzda shakllanganligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu jarayon davlat bilan diniy tashkilotlar munosabatining "ideal modeli" to'g'risidagi, ya'ni "bo'linish modeli" yoki dinning davlatdan ajralishini nazarda tutuvchi tushunchalarning shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bugungi kunda demokratlashtirish jarayoni O'zbekistonni ham tubdan o'zgartirdi. Din jamiyat va davlat hayotida muhim omillardan biriga aylanib bormoqda. Yangi ijtimoiy-siyosiy vaziyatda konfessiyalar, diniy yo'nalishlar va

ularning izdoshlari soni sezilarli darajada o'sib borayotganligi kuzatilmoqda. Dinga bo'lgan munosabatning o'zgarishi jamiyat ongida sodir bo'ldi. Din va diniy tashkilotlarning jamiyat hayotidagi tarixiy va dolzarb rolini baholashdagi o'zgarish ularga bo'lgan ishonch darajasini, jamoatchilik fikrida ularning obro'sining oshishiga olib keladi.

Davlat jamiyat hayotining turli jabhalarida diniy birlashmalardan ajratilgan bo'ladi va ayni vaqtda ular bilan samarali muloqot hamda hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Bu yerda biz ijtimoiy sohada davlat hokimiyatiga va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini ta'minlashga oid, jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy ma'noga ega bo'lgan masalalar yuzasidan munozara qilish mumkin bo'lgan davlat va nodavlat tashkilotlarini tushunamiz. Jamoatchilik muhokamasi umumiy masalalarga daxldor va ijtimoiy-siyosiy maydonda ro'y beradigan muhim tanqidiy bahslardir. Demokratiya bo'yicha ekspertlar so'nggi vaqtlarda olib borayotgan ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarida faqat demokratiyaning umumiy muammolariga emas, balki demokratik jamiyatda dinning tutgan o'rnini masalasiga asosiy e'tibor qaratmoqdalar va bu masalalar ilmiy munozaralarda demokratiya tamoyillarining "birlashtiruvchi" yoki "markazlashtiruvchi" modellariga muhim qo'shimcha sifatida birinchi o'ringa chiqmoqda. Lekin bu yondashuv "g'oliblar va mag'lublarni aniqlash mexanizmi"ni topishga xizmat qilishi mumkin, ammo konsensusga erishish, jamoatchilik fikrini shakllantirish yoki yetarli darajada kompromisga erishish mexanizmini ishlab chiqishga hech qanday yordam bermaydi.

Aslida, "deliberal demokratiya" nazariyasiga ko'ra, jamoatchilik muhokamasi barqaror demokratiya tamoyillarini amalga oshirish mumkin bo'lmagan holda, konsensusga erishish mexanizmi hisoblanadi.

Shunday qilib, dinning ijtimoiy maydonda ishtirok etish huquqi va jamoatchilik muhokamalarida to'liq ishtirok etishi uchun qo'shimcha ravishda asoslanishi zarur. Quyida biz dinning ijtimoiy maydonda ishtirok etishini ta'minlaydigan argumentlarni taqdim etamiz va umid qilamizki, ushbu argumentlar axloqiylik va diniylik o'rtasidagi muloqotning ijtimoiy ahamiyati va zamonaviy konstitutsiyaviy demokratik davlatlarning barqaror rivojlanishi uchun kerakligini isbotlay oladi. Ma'lum bir ma'noda ushbu ilmiy ish dinni ijtimoiy hayotga tegishli emas deb hisoblaydigan yangi jangari ateistlar bilan bahs-munozaradagi tortishuv bo'lib, jamoatchilik muhokamasida tub burilish yasashga qodir emas va mutlaqo subyektiv hamda individual bo'lib, xususiy xarakterga ega bo'lib qolishi kerak.

Quyida biz ijtimoiy maydondagi dinlarni va diniy jamoalarni tashkil etuvchi elementlarning mavjudligi haqida gapirishga imkon beruvchi abstrakt, "ideal tip"dagi fikrlarni taqdim etamiz.

Bu masalada ikki xil fikr mavjud. Birinchisi normativ fikr deb ataladi va biz uni dunyoviy fanlar hamda din o'rtasidagi munosabatning rasmiy tomoniga tegishli deb hisoblaymiz; ikkinchisi – munosabatning epistemologik va kontent tomoniga bog'liq. Normativ fikrlarning mohiyati konstitutsiyaviy demokratik jamiyat dunyoviy yoki diniy haqiqatni himoyalashni istamaganidek, haqiqatga emas, balki jamiyat barcha a'zolarining roziligiga asoslanganligidadir. Haqiqatan ham, biror narsaning haqiqiy (masalan, dunyoviy fan nuqtai nazaridan ham) ekanligi butun jamiyat uchun majburiy ahamiyatga ega emas. Ushbu haqiqat siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega usullarda shakllangan bo'lsa ham, uning jamiyatda tan olinishi uchun kamida ijtimoiy konsensus zarur.

Alohida ta'kidlash lozimki, demokratik davlatda diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi munosabatlar davlat va din (yoki diniy tashkilotlar) o'rtasidagi munosabatlar masalasiga tegishlidir. Bu yerda gap o'tmishda diniy tashkilotlar va nodavlat xarakterdagi (transmilliy diniy harakatlar, din niqobidagi terrorizm, diniy va etnik to'qnashuvlar) voqealar haqida ketmoqda. Ayni paytda din boshqa rasmiy tuzilmalar bilan bir xil narsa emas. Din ko'pincha davlatlar, jamoalar, ayrim guruhlar va siyosiy harakatlar o'rtasidagi transmilliy aloqalar tizimi shaklida jahon sahnasida namoyon bo'ladi. Ushbu aloqalar davlat chegaralaridan ham "yuqori" bo'lib, davlatlararo munosabatlar tizimida mavjud bo'lgan o'zaro aloqadorlikning qo'shimcha tizimini yaratadi. Qaysidir ma'noda, davlatning insonning ham davlatga, ham diniy tashkilotlarga sodiq bo'lgan dunyosiga qaytishini bildiradi.

Din va davlat munosabatlarining diniy-siyosiy hamda nazariy modellari prinsipial nuqtai nazardan umuman boshqacha. Din va davlat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar haqiqiy bog'liqlikdagi muxtoriyat orqali aniqlanadi. Din va davlat o'rtasidagi munosabatlarning bunday dualizmi, din va

davlatning o'ziga xos tabiatini hamda ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Din va davlatni "birlashtiruvchi" bu yoki shunga o'xshash dasturlar din va davlat tabiatining buzilishiga olib keluvchi ijtimoiy omildir.

Ammo bir narsani yodda saqlash lozimki, demokratik davlatni shakllantirishda diniylikni dunyoviylikka qarshi qo'yish emas, balki ularni bir-birini to'ldiruvchi elementlar sifatida qabul qilish nihoyatda muhim. Chunki dinlarda ham demokratik tamoyillarning shakllanishida muhim rol o'ynovchi elementlar mavjud. Dunyoda 1,8 milliard inson e'tiqod qilayotgan islom dini ham bunga yaqqol misoldir. Ammo ba'zi islom diniga e'tiqod qiluvchilar va hatto diniy ulamolar ham demokratik tizimni mutlaqo xato hamda islom diniga zid tizim sifatida tushuntirishga harakat qilmoqdalar.

XULOSA

Ilmiy nazariyada ba'zi olimlar dunyoviylikni nodemokratik va nohuquqiy xarakterga ega bo'lgan dahriylik sifatida talqin qiladilar. Garchi ateistik davlat dunyoviy ko'rinishga ega bo'lsa ham ko'pgina ekspertlar dunyoviy bo'lmagan davlatlarni ateistik xarakterga ega deb hisoblaydilar. Yuqorida keltirilgan demokratik davlatning asosiy xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, dahriylikda e'tiqod erkinligining mavjud emasligi va hech qanday diniy birlashmalarning faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmasligi bilan demokratiyaning asosiy tamoyillariga ziddir. Shu bilan birga davlat mafkurasi hukmron mafkura sifatida o'rnatiladi va diniy birlashmalarning huquqiy tengligi haqida gapirishga hojat yo'q. Shuning uchun ham dunyoviylik va dahriylikni hech qachon aralashtirmaslik nihoyatda muhimdir. Ularning asosiy farqi ham har qanday dunyoviy davlatda fuqarolarning vijdon erkinligi to'liq ta'minlanadi va qonun asosida kafolatlanadi. Bu holat uning demokratik tamoyillarga zid emasligini ta'minlaydi. Diniy tashkilotlar faoliyatining tartibga solinmaganligi yoki qonun asosida taqiqlanganligi dahriylikka xosdir. Ammo dahriylikning ham o'ziga xos turlari mavjud bo'lib, u ikki shaklda ifodalanadi: passiv va aktiv. Dahriylikning aktiv shakli davlat tomonidan diniy tashkilotlar va dinga e'tiqod qiluvchilarni ta'qib qilinishi bilan passiv shakldan farq qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

7. Абдулла Шер. Ахлоқшунослик. Дарслик. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. Т., 2010 йил, 219-бет.
8. Абдураззакова М. Развитие секуляризма в странах Востока (например Индии и Турции).- Т.: ЖИДУ. (Афтореферат) док.пол.наук, 2010.
9. Бойназарова А. Ислом фалсафасида диний ва дунёвий илмлар уйғунлиги масаласи. – Тошкент, Тошкент ислом университети.(Афтореферат) ф.ф.н, 2009.
10. Боялиев Ж. Глобаллашув шароитида диний ва дунёвий мафкураларнинг ўзаро таъсири масаласи. Монография. Т.: ТДИУ, 2013.
11. Ёвқачев Ш. Политизация религии и проблема исламского экстремизма в современном Египте. (Афтореферат) к.п.н.-Т., 2000.
12. Маънавият: асосий тushunchalar lug'ati – Т.: "Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти" нашриёти. 2009. 173 бет.
13. Томпсон М. Философия религии / Пер. с англ. Ю. Бушуевой. – М.: ФАИРПРЕСС, 2001. ст 145
14. Фалсафа: энциклопедик lug'at – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 2010. 35 бет.
15. Чичерин Б.Н. Наука и религия / Вступ. ст. В.Н. Жукова. – М.: Республика, 1999.
16. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Д ҳарфи. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 2001 йил. 271 бет.